

**EKOLOGIYAGA OID TERMINOLOGIK BIRLIKLARNING
DIFFERENSIYASI VA BU SOHA BO'YICHA TURLI OLIMLAR
QARASHLARI**

Dadabayeva Shirin Shuhratovna

FDU ingliz tili amaliy kursi kafedrası katta o'qituvchisi

Turg'unova Nigora Rustamjon qizi

FDU Lingvistika: ingliz tili yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologiyaga oid terminlarning Alvin Fill tomonidan differensiyalangan guruhları, M.K.Palievanning bu soha bo'yicha belgilagan eng asosiy ikki yo'nalishi hususida keltirilgan ma'lumotlar o'rganib chiqilgan. Shuningdek, T.A.Akimova, V.V.Xaskin, A.V.Manankov va yana bir qancha boshqa olimlarning bu soha bo'yicha olib borgan izlanishlari va fikrlarining tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar. Alvin Fill, ekolingvistika, til, tillar ekologiyasi, ekologik lingvistika, lingvistik (til) ekologiya, "Gekkel" ekologiyasi.

Аннотация. В данной статье изучается информация, полученная об отдельных группах экологических терминов Алвином Филлом, а также двумя основными направлениями, выявленными в этой области М.К. Палиевым. Кроме того, представлены исследования и анализ работы Т.А. Акимовой, В.В. Хаскина, А.В. Мананкова и нескольких других ученых в этой области.

Ключевые слова: Алвин Филл, эколлингвистика, язык, экология языков, экологическая лингвистика, лингвистическая экология, "Геккель" экология.

Annotation. In this article, information obtained about the differentiated groups of ecological terms by Alvin Fill, as well as the two main directions identified by M.K. Paliev in this field, have been studied. In addition, the research and analysis of T.A. Akimova, V.V. Khaskin, A.V. Manankov, and several other scholars in this field have been presented.

Key words: Alvin Fill, ecolinguistics, language, ecology of languages, ecological linguistics, linguistic ecology, "Gekkel" ecology.

Tilshunoslik sohasida yangidan-yangi izlanishlar amalga oshirilar ekan, ekologik terminlarni o’rganish sohasida ham bir qator ilmiy izlanishlari olib borilmoqda. Jumladan, ekologiyaning turli fan tarmoqlari bilan bog’liq terminlarni o’rganish, tillararo tahlil qilish dunyo tilshunoslari oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Dunyo bo’ylab ekologiyaga bog’liq turli xil dolzarb muammolarning paydo bo’lishi esa ekolingvistik tadqiqotlar ko’lamini yanada kengaytiradi, shuningdek, yangidan-yangi ekologik terminlarning nutqimizda faol ishlatilishi, ekologik terminlarning ingliz va o’zbek tillaridagi izohli lug’atini yaratish, tematik guruhlariga ajratish va semantikasiga oid izohli hamda tarjima lug’atlarni yaratish zarurligini ko’rsatadi.

Bugungi kunda, butun jahon tilshunosligida ekologiya atamasiga qiziqish ortib bormoqda, buning asosiy sabablaridan biri ushbu fanda ahamiyatli hisoblanmish “saqlanish g’oyasi” ning ustunligidir. Buning natijasi o’laroq, ekologiyaga oid lingvistika jahon tilshunosligida yetarli darajada ishlab chiqilgan mexanizmga ega bo’ldi. Tilshunos olim A.Fill bu sohadagi asosiy terminologik birliklarning quyidagi differentsiatsiyasini taklif etadi:

1) ekolingvistika (ekolinguistik – ecolinguistics) lingvistika va ekologiyani birlashtiruvchi ilmiy bilim sohalari uchun umumiy termin hisoblanadi;

2) til, tillar ekologiyasi (ekologie der Sprache(n) – ecology of language(s) til nisbati, o’zaro ta’siri va o’zaro harakati (tilni saqlab qolish va uning ko’pxilliligini saqlash) ni o’rganadi;

3) ekologik lingvistika (ekologische linguistik – ecological linguistics) tomonidan tilga ekologik terminlar va ekologiya tamoyillari (masalan, ekotizim tushunchasi) ekstrapolyatsiya qilinadi;

4) lingvistik (til) ekologiya (sprachekologie- language ecology, linguistic ecology) tomonidan til va “ekologik” masalalarning o’zaro aloqasi va bir-biriga bog’liqligi tadqiq etiladi.

Yana bir olim M.K.Pilaevaning izlanishlariga ko'ra, ekolingvistika sohasida ikkita yo'nalishni belgilash mumkin. Birinchisi – bu, til ekologiyasi bo'lib, u ekologik tushunchalar (ekologiya, atrof-muhit, ekotizim)ni tilga metaforik jihatdan ko'chirishni amalga oshiradi, ikkinchisi esa tilga oid ekologiya bo'lib, u til va matnlarni “ekologik” tamoyil asosida ko'rib chiqadi. Tilning atrofdagi voqelik va hodisalarni aks ettirishdagi roli hamda imkoniyatini tadqiq etadi.

Tadqiqotchi olim E.Gekkelning ta'rifiga ko'ra, tirik organizmlar va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlar boshidanoq ekologiyaning diqqat markazida bo'lgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan izlanishlar va izohlardan ma'lumki, Lingvoekologiya ekologiya va lingvistika fanlarining o'zaro ta'siri natijasida shakllangan bo'lib, u tildagi barcha (etnik, dialektal va boshqa) jarayonlarni saqlab qolishga qaratilgan til yo'nalishi sanaladi. Lingvoekologiya, odatda, lingvistik xilma-xillikni huquqiy himoya qilish, til hodisalarining ijtimoiy vazifalarini kengaytirish, ona tili va, umuman, tilning jamiyatdagi nufuzini ko'tarish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Aynan til muhiti sabab shaxs shakllanadi, shu tufayli lingvoekologiyani ta'lim-tarbiya muammolaridan ayro holda o'rganib bo'lmaydi. Shuningdek, “ekologiya” konsepti ilk bor Ernest Gekkel tomonidan tirik mavjudotlar (o'simliklar va hayvonlar) uchun ishlatilgan va “organizmlar va ularning jonli va jonsiz muhiti o'rtasidagi, shu jumladan, bir xil va boshqa turdagi organizmlar o'zaro ta'sirni o'rganish” deb ta'riflangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ivanova YE.V. /Seli, zadachi i problemi ekolingvistiki. Pragmaticheskiy aspekt kommunikativnoy lingvistiki i stilistiki // Sbornik nauchnix trudov YE.V.Ivanova. Chelyabinsk: Obrazovanie, 2007, S. 41-4
2. Fill A. / Ecolinguistics und Amerikanistik. Band 23 // Heft 1. – Tubingen, 1998
3. Геккель Э. Г. / Общее учение о развитии // 1908. – 274 с. [* № 103856, шифр 575/Г303].

4. Техника_Акимова, Кузьмин, Хаскин / Экология Природа-Человек //Учебник, 2001, 343с
5. Мананков А.В / Геоэкология, Промышленная экология // 2010, 204 с
6. Fill A. 2001. / Language and Ecology: Ecolinguistic Perspectives for 2000 and Beyond. In: Applied Linguistics for the 21st Century: AILA Review // 2001. 60–75.